

**TURLI XIL YOZUVLARDA BITILGAN HUJJATLAR TARIXI
(TARIXIMIZNING DAVLAT BOSHQARUVIGA OID MANBALARI MISOLIDA)**

Abduvaitov Eldorbek Farxod o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistri

eldorbekstudent@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek hujjatchiligining takomillashtirishdagi muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tarixini tadqiq va tahlil qilishdir. Hujjatchilik va davlat tilida yuritishda eng avvalo o‘zbek tilining barcha davrlardagi tarixi haqida ma’lum ma’lumotlarni bilish, tasavvur qilish zarur.

Kalit so‘zlar: hujjatchilik, davlat tilida ish yuritish, yorliq, farmonnoma, bitim arznoma, qarznoma, tilxat, siyosiy munosabatlar, patta, xalqaro aloqalar.

Hujjatchilik o‘zining uzoq tarixiga ega. Hujjatlar qadim zamonlardan beri olib borilgani ma’lum. Yozuvning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda hujjatchilik rivojlana boshlagan, u kishilar o‘rtasidagi muomala, fikr almashuv va bir - birini tushunish vositasini bajargan. Hujjatchilik asrlar mahsuloti bo‘lib, u jamiyat tarixi bilan vevosita bog‘liq. Ishlab chiqarish va davlat apparatidagi ish yuritishning o‘zgarishi bilan hujjatchilik ham rivojlanadi va takomillashadi. Ishlab chiqarish va davlat apparatidagi ish yuritishning o‘zgarishi bilan hujjatchilik ham rivojlanadi va takomillashadi.

Jamiyatning taraqqiyoti hujjatchilik tizimida ham ma’lum o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Masalan: ibtidoiy tuzum davrida ham jamiyat a’zolari o‘zaro munosabatlardagi muhim holatlarni qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Tabiiyki, ehtiyoj natijasida o‘sha tuzumga xos ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan. Olim Edvard Kyera o‘zining “Они писали на глине”⁶ (1984) asarida Bobil (Vavilion) davlatida eramizdan avvalgi 1792-1750-yillarda “Qonunlar majmui (Kodeksi)”, undan ham qadimroq 2112-2094-yillarda bo‘lgan Ur-Nammu chiqargan qonunlari haqida ma’lumot beradi. Davrlar o‘tishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o‘zgargan, siyosiy munosabatlar takomillashgan. Shu bilan birga, hujjatlar ham takomillashib borgan. Bugungi kunda fanda qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lgan manbalar mavjud. Ular tariximizning turli davrlariga oid O‘rxun-Enisey (runik), sug‘d, eski uyg‘ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan hujjatlar haqida ma’lumot beradi. Qadimgi Xorazm yozuvini o‘qib chiqqan, olim S.P.Tolstov “Древний Хорезм”, 1962-yil “Древние дельты

⁶ Bu haqida qarang: <https://royallib.com/book/keram-edvard/oni-pisali-na-gline.html>

Окса и Яксарттой” kabi kitoblarida Tuproqqal’ada topilgan yodgorliklar haqida qimmatli ma’lumotlar bergan. Umuman, Xorazmdagi xarobazorlaridan charm yuzasiga yozilgan 8 ta xo’jalik hujjatdan parchalar, 20 taxtachaga yozilgan hujjat topilgan. Ularda Tuproqqal’a hayot davrida unga tobe xonadon a’zolarining ro’yxati, harbiy chaqiriq, soliq, jon ro’yxatlari bo’lgan. Nufuzli zotlar bilan birga qullar ham qayd qilingan. 4 ta hujjatda Tuproqqal’a omboriga qabul qilingan xo’jalik asbob-uskunalari, xususan, bir o’rinda g’ildiraklar, bu narsalarning taqsimlab berilishi haqidagi tilxat-ro’yxatlar bor.

Tarixchi olimlar ish olib borib, Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmonnoma, bitim arznoma, qarznoma, tilxat va mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgani haqida xabar beradilar. Yorliqlarning mazmuni xilma-xil bo’lgan. Ular xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k bildirgan. K.Sodiqov o’zining “Eski uyg’ur yozuvi” (1989) asarida 1393-yil To’xtamishxonning polyak qiroli Yagoyloga yo’llagan yorlig’i, Temur Qutlug’ning 1397-yorligi, 1469 Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg’ilonlik Mir Sayid Ahmadga bergan yorlig’ini qayd qilib o’tadi. Shuningdek, Toshkent hokimi Yunusxo’janing 1797-yil 2-iyunda Peterburgga Rossiya podshosiga o’z elchilari orqali yuborgan yorlig’i haqidagi ma’lumotni “Архив внешней политики Российской Федерации”dan bilish mumkin. XIX asrda Qo’qon xonligida patta keng tarqalgan hujjatlardan biri bo’lgan (A.Trotskaya. Ganchi, ganchiboshi v Kokandskom xanstve. M. 1963 g.) Pattada ma’lum kishiga muayyan miqdordagi pul, mahsulot, urug’ (don) yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqida ma’lumot aks ettirilgan. Yuqorida qayd qilinganidek, kishilar hatto qabilalar o’rtasidagi muomalada hujjatning sodda shakllaridan foydalanilgan. Masalan: M.Qoshg’ariyning “Devonu lug’ot-it-turk” asarida bulug atamasi uchraydi, U elchiga qaytib ketish uchun beriladigan ijozat qog’ozi, elchilarga beriladigan tuhfa ma’nolarini ifodalaydi. XI asr olimi, Yusuf Xos Xojibning “Kutadg’u bilik” asarida esa bildirgulik so’zi yorliq va noma ma’nosida ishlatilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida xalqaro aloqalarga doir atamalar qayd etilganki, bu atamalar tizimini oydinlashtirishga katta yordam beradi. Unda arzadosh so’zi arizachi o’rnida qo’llangan. Insho so’zi esa yozma nutq ma’nosini

Milliy istiqloq hayotimizning hech bir istisnosiz barcha sohalarida bo’lgani kabi ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo’l ochdi. Mustaqil davlatimizning asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda, “Davlat tili haqida”ga qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda ona tilimiz bo’lmish o’zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko’rsatib berilgan. Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoju shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamsitishlardan ko’ngli singan, ammo yorug’ kunlarga yetmoq umidi so’nmanan tilimiz chinakam munavvar kunlarga salomat yetib keldi. Yaqin o’tmishimizda milliy tafakkurni, milliy o’zlikni izdan chiqarmoqqa, shu yo’l bilan o’z hukmronligining umrboqiyiligini

ta'minlamoqqa xomtama bo'lgan mustabid tuzum tilimizni izdan chiqarishga qattiq bel bog'lagandi. Bu tuzum tilimizga "yagona umumxalq tili"ning unsurlarini o'rinli-o'rinsiz tiqishtirishdan tashqari, ayni shu "yagona umumxalq tili"ni ikkinchi ona tilim deydiganlarga "xo'rozqand"lar ulashdi, shu yo'l bilan o'z ona tilini bilmaydiganlar safini kengaytirishga urindi.

Ta'kidlash joizki, milliy ma'naviyatni ona tilidan ayri holda tasavvur etib ham bo'lmaydi. Chunki xalqning ruhiyati, tabiati, butun borlig'i uning tilida aks etadi. Shuning uchun ham insonning ma'naviy kamolotida ona tilining o'rni beqiyosdir. O'zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo'llanmoqda, milliy ma'naviyatimizning betakror ko'zgusi sifatida, xalqimizning borligi va birligi belgisi sifatida o'rganilmoqda, o'rgatilmoqda. Ana shunday sharoitda, "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin".

Kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tilidan tashqari, rasmiy-ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonmi, tadbirkormi yoki ziyolimi, baribir, hech bo'lmaganda, ariza, tilxat yoki ishonchnoma yozishiga to'g'ri keladi. U yoki bu darajadaga korxona, muassasa yoki tashkilot rahbarining faoliyatini esa ish yuritish qog'ozlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham "Davlat tili haqida"gi qonunimizning o'zak moddalar (8-14-moddalar)⁷ ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan.

Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar kattayu kichik mehnat jamoalarining, umuman kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq bu jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan. Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094 yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi "hujjatlar" deb ataladigan tartibot vositalarining nechog'li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi.

XIX asrda Qo'qon xonligida keng tarkalgan hujjatlardan biri "patta"lardir⁸. Pattada ma'lum kishiga muayyan miqdordagi pul, mahsulot, urug' (don) yoki boshqa narsalarni

⁷ Bu haqida qarang: <https://lex.uz/docs/-121051>

⁸ Троицкая А.Л. Ганчи, ганчибоши в Кокандском ханстве (XIXв.)// Тюркологические исследования. М.-Л., 1963 стр. 252.

berish lozimligi haqida ma'lumot aks ettirilgan. Patta matnlarida ham o'ziga xos doimiy va muayyan tarkib va nutqiy qolip borki, bu ham o'zbek (turkiy) hujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil mahsuli ekanligining dalilidir. "Oktyabr" to'ntarishidan keyin sho'rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o'zining istibdod yo'rig'iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo'riq sirtmog'idan chetda qolmadi. Mohiyatan o'ta g'irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqei pasayib bordi.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish muammolariga bag'ishlab 1921-yilda o'tkazilgan "I Butun Rossiya konferensiya kun tartibiga kiritilgan boshqarish mehnatini ilmiy tashkil qilish va hujjatlar bilan ishlash masalasi, shuningdek, mamlakatda bu ishlarni muvofiqlashtiruvchi va yo'lga solib turuvchi maxsus tashkilot tuzish masalasining asl mohiyati ham rus tilining ijtimoiy mavqeini yanada kuchaytirishdan iborat edi. Sho'ro siyosati go'yoki o'zining "millatlar va tillarning tengligini ta'minlash" tamoyilini amalga oshirganday qilib ko'rsatish maqsadida jumhuriyatimizda idoraviy ish yuritishni o'zbekchallashtirish borasida ba'zi harakatlarni amalga oshirgan. O'zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo'mitasi 1924-yilning 31-dekabrida 48-raqamli bir qaror qabul qilgan. Bu qarorning nomi aynan mana bunday: "Ishlarni o'zbek tilida yurgizish ham O'zbekiston jumhuriyatining inqilobiy qo'mitasi huzurida markaziy yerlashtirish hay'ati va mahallalarda muzofot yerlashtirish hay'atlari tuzilish (i) to'g'risida". Ushbu qaror, unda ta'kidlashshshcha, sho'ro idoralarining ishlarini yerli xalqqa yaqinlashtirish maqsadi bilan qabul qilingan. Qarorda hukumat, kooperativ, xo'jalik idoralari va boshqa muassasa, tashkilot va korxonalar jumhuriyatning bo'list (волость) ham uyaz (уезд) doiralarida butun yozuv ishlarini faqat o'zbek tilidagina yurgizishga majbur etish vazifasi qo'yiladi. Buning uchun korxona, tashkilot va muassasalarda "ishlarni o'zbek tilida yurguzish bo'lmalari(ni) tashkil qilmoq", yo'riqnomalar nashr etish, "yerlik xalqdan amaliy ishchilar (ish yuritish bo'yicha) tayyorlamoq" va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozimligi maxsus ko'rsatib o'tilgan. Bu qarorni joriy qilish yuzasidan, tabiiyki, muayyan ishlar amalga oshirila boshlagan, xususan, maxsus ish qog'ozlari tayyorlangan. Lyokin 30-yillarning 2-yarmidan boshlab o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor rasman susayib borgan. O'sha murakkab tarixiy jarayon, xalqlarning milliy o'zliklarini anglashlaridan hokimiyatning dahshatli qo'rquvi, bu qo'rquv hukmron bo'lgan qatag'on davrining achchiq samarasi bugun hech kimga sir emas. Aytish lozimki, yaqin o'tmishimizda barmoq bilan sanarli miqdordagi hujjatlar o'zbek tilida yozilgan. Ammo bu hujjatlarning tilini sof o'zbekcha deb aytish ancha qiyin. Yaqin-yaqinlargacha "Berildi ushbu spravkami falonchiyevga shul hakdakim, haqiqatan ham bu o'rtoq shul joyda yashab turadi" qabilidagi 20-yillarda rus tilidan andoza olish tufayli paydo bo'lgan, ya'ni shaklan o'zbekcha ma'lumotnomalar yozib kelindi. Rus tilida mazkur

matnning asli “Дана настоящая справка Иванову в том, что товарищ Иванов действительно проживает по такому-то адресу” tarzida bo‘lib, bu matn til nuqtai nazaridan benihoya tugal, lo‘nda va benuqson. Ammo o‘zbek tilida ayni so‘z tartibini saqlashning o‘ziyoq o‘zbek tilining tabiatiga mutlaqo zid. Rus tilidan andoza olish (aytish kerakki, bunday hol boshqa tillarda, masalan, tatar tilda ham kuzatiladi), biror bir darajada bo‘lsin, o‘zini oqlay olmaydi. Umuman, o‘zbek hujjatchiligining boy va uzoq tariximizning ilk bosqichlaridan ibtido olgan an‘anasi mavjud bo‘lsa-da, “Oktyabr” to‘ntarishidan keyin boshqa joylarda bo‘lgani kabi jumhuriyatimizda hujjatchilik bevosita o‘zbek tili negizida rivojlantirilmadi. Bu sohadagi asosiy yo‘nalish nusxa ko‘chirishdan iborat bo‘lib qoldi⁹. Ana shuning va boshqa bir qancha omillarning oqibati natijasida o‘zbek tilining rasmiy ish uslubi deyarli takomil topmadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda o‘zbek tilida mukammal hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi. Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayni paytda hujjatlar matnini tuzish boshqaruv apparati faoliyatidagi eng sermehnat va sermashaqqat jarayondir. Bu jarayonning oqilonaligi va samaradorligini oshirmasdan turib, umumiy boshqaruv madaniyatini yuksaltirib bo‘lmaydi. Jamiyat hayoti barcha jabhalarining jadal rivoji esa boshqaruv madaniyatining darajasiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar har qanday zaruriy axborotni rasmiy ish tilining tegishli shakllarida bimalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish malakalarini puxta egallagan bo‘lishi zarur.

Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar kattayu kichik mehnat jamoalarining, umuman kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo‘lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq bu jamiyat a‘zolari o‘zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat’iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кьеру Э. Они писали на глине. М., 1984, стр. 124. Қаранг: Содиков Қ. Эски уйғур ёзуви. Т., 1989, 34-35-бетлар. ЦГВИА РФ, Архив внешней политики России .Фонд Ташкентские дела, опись ИМ, дело № 1, опись 132/1, дело № 6.

⁹ Shu nuqtai nazardan K.Gromatovichning Uzbekistan Davlat nashriyotida 1930-yilda rus va o‘zbek tillarida nashr etilgan “Ish qog‘ozlari namunalari - Обращи деловых бумаг” nomli qo‘llanmasini ko‘rsatish mumkin. Bu qo‘llanma rus tilidagi tegashli hujjatlardan to‘la nusxa ko‘chirish asosida yaratilgan.

2. Ёрликларнинг хусусияти ва матний таркибий қисмлари ҳақида қаранг: Григорьев А. П. Конкретные формуляры чингизидских жалованных грамот XIII-XV вв. // Тюркологический сборник. – М.: 1978, стр. 198-218.
3. Троицкая А.Л. Ганчи, ганчибоши в Кокандском ханстве (XIX в.) // Тюркологические исследования. М.-Л., 1963 стр. 252.
4. D.Yuldasheva. Davlat tilida ish yuritish. O‘quv uslubiy qo‘llanma.- Samarqand: SamISI nashri. 2021.-164 bet.
5. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand, SamDU nashri, 2007.
6. Karimov S.A., Mahmadmurodov Sh., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: O‘zbekiston, 2003.
7. Muhitdinova X.S., Abdullayeva N.A. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi. - T.: «O‘zbekiston», 1968.
8. Rizayev S. Ish qog‘ozlarining ayrim namunalari. - T.: 1990. 9.
9. Mahmudov N. O‘zbek tilida ish yuritish. - T.: 1990
10. To‘xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
11. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.
12. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
13. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000, 2017, 2018.
14. Головач А.С. Оформление документов. Киев -Донецк, 1983, стр.
15. www.lex.uz sayti (<https://lex.uz/docs/-121051>)
16. www.royallib.com sayti
(https://royallib.com/book/kera_edvard/oni_pisali_na_gline.html)